

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAHSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası

o'qituvchisi Qirg'izov Nuriddinning

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI
DARSLARINI O'TISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI
mavzusidagi**

ILMIY MAQQOLASI

Namangan-2018

Maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini o'tishda qo'llaniladigan ba'zi bir usullar haqida fikr yuritiladi

Kalit so'zlar: Maktab, boshlang'ich sinflar, ot soz turkumi, o'yin uslubi, suratlar, ko'rgazmalar, sifat so'z turkumi, son so'z turkumi

Статья об использовании некоторых методов на уроках родного языка в начальных классах

Ключевые слова: школа, начальное класса, имя существительное игровой метод, картина, наглядности, имя прилагательное, имя числительное

There is an idea about. Some ways, which is used during the teaching mother tongue lessons for the primary schools in this article.

Key words: Shohool, primary schools, subject, images, adjective, game method, numeral exhibitions

Maktab davri har qanday insonning hayotida muhim o'rin tutadigan davrdir. Bola maktabga hali go'daklik paytida, ya'ni 6-7 yoshida keladi. Uni hali shakl berilmagan loyga o'xshatish mumkin. Undan qanday –badiiy jihatdan go'zal bo'lgan san'at asari, yoki beo'xshov idish yaratish esa unga shakl beruvchi kulollar, ya'ni o'qituvchilarning kasbiy mahoratiga bog'liq.

Maktab davri uch bosqichga bo'linadi. 1-bosqich kichik maktab Yoshi davri bo'lib, 1-4-sinflarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi bosqich deganda biz 5-9 sinflarni nazarda tutamiz. Nihoyat, so'nggi bosqich, o'z ichiga 9-11 sinflarni kiritadi. Har bir bosqichdagi o'quv jarayoni keyingisidan o'z o'quv dasturlari bilan farq qiladi. Bularning orasida boshlang'ich ta'lim davri alohida o'rin tutadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, bolalar maktabga ilk kelgan paytlarida hali hech narsani bilmaydigan holda keladilar. Ular kelajakda qanday inson bo'lishi esa ko'p jihatdan ularning boshlang'ich sinflarda o'qish paytida olgan bilimlari sifatiga bog'liq. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bu paytda berilgan bilim bolalarning kelajakda bilimdon inson bo'lishlariga qo'yilgan poydevordir. Bu holat boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zimmasiga ulkan ma'suliyat yuklaydi.

Boshlang'ich sinflarda o'tkazilgan dars mashg'ulotlari o'zgachaligi bilan farq qiladi. Bu sinflar o'quvchilari darsga ajratilgan 45 daqiqa vaqtni bir maromda o'tkazishga tayyor bo'lmaydilar. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda dars beruvchi o'qituvchilar iloji boricha o'quvchilar iloji boricha zerikib qolmasliklarini nazorat qilishlari lozim ko'riladi. Bu sohada tajribasi katta bo'lgan muallimlar bunday hollarni oldini olish uchun ko'p hollarda darsni qismlarga bo'lishadi va o'qishdagi bir xillikdan qochishga erisha oladilar. Shu narsa ma'lumki, bu davrda o'quvchilar hali bolalikdunyosini to'liq tark etmagan bo'ladilar. Shuning uchun ularning tabiatiga hali o'yinqaroqlik va bolalarga erkalikka moyillik sezilib turadi. Ular hali maktabgacha ta'lim muassasalarida o'rnatilgan tartib-qoidalar ta'siridan halos bo'lmagan bo'lishadi. O'qituvchi bu bolalarga bilim berish jarayonida shu jihatni ko'zdan qochirmasligi lozim. Bundan tashqari, o'qituvchi bolalar tabiatini juda yaxshi biladigan psixolog bo'la olishi lozim. Chunki maktabga tabiati turlicha bo'lgan o'quvchilar keladilar. O'qituvchining vazifasi esa ularning tabiatiga bir xilda ta'sir qila olishga erishishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun o'qituvchi turlicha usullarni qo'llaydi. Boshlang'ich sinflarda, asosan quyidagi fanlar o'tiladi: o'qish va yozish, matemateka, tabiatshunoslik, jismoniy tarbiya, rasm darsi. Ko'rib turganimizdek, darslarning turi ko'p emas. Bu esa o'quvchilarning e'tiborini ushlab turishda ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shunday paytlarda o'qitishning o'zgacha usullarini qo'llay bilish juda muhimdir.

Malakali o'qituvchi bunday usullardan bir qanchasini o'zlashtirgan bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda keng tarqalgan usullardan biri bu o'yinlardir. O'yinlarni har qanday dars turida qo'llanishi mumkinligi ahamiyatga molikdir. O'yinlar ham jamoaviy, ham individual ham bo'lishi mumkin. O'yin uslubi darslardagi zerikarli bir xillikning oldini olishga yordam beradi, o'quv jarayonida musobaqalashishi ruhini olib kirishi, o'quvchilarni jarayonda qiziqish

bilan ishtirok etishga bo'lgan intilishini kuchaytirishga olib keladi. Yuqorida sanab o'tilgan fanlar u yoki bu jihatdan bir-biri bilan bog'langan bo'ladi, ayniqsa o'qish va yozish darslari.

Bu masg'ulotlar o'quv dasturidagi eng muhim fanlar hisoblanadi. Ular o'quvchilar kelajakda chin ma'noda savodli inson bo'lib yetishishlari uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladilar.

Shuning uchun ham aynan shu darslarda o'quvchilarning bor e'tiborlarini bir yerga jam qilib, o'qishlarini nazorat qilib borish juda muhimdir. O'qish darslarida o'quvchilar so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganishsa, yozuv darslarida harflarni to'g'ri va chiroyli yozishni o'rgatishadi. Shuning uchun ham ularni zeriktirmaslik lozim. Buning uchun o'qituvchi turli yordamchi usullardan unumli foydalanishi mumkin. Bular ko'rgazmali qurollar, turli diafilm va videofilmlar, bolalarning e'tiborini torta oladigan boshqa narsalar bo'lishi mumkin.

Ona tili darslarida o'qituvchi bolalarga ot so'z turkumini tushuntirayotgan paytda turli o'yinchoqlarni namoyish qilgan holda, ularning nomlanishini aytib, shu orqali o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkaza olishi mumkin. Aynan shu maqsadda hayvonlar, ertak qahramonlarining suratlarini ko'rsatish va o'quvchilardan ularning nomini aytib o'tishni so'rashi mumkin.

O'quvchi bu topshiriqni mustaqil bajarish orqali dasturda ko'zda tutilgan maqsadga erishish mumkin. Bunga o'yin elementlari qo'shilganda, o'quvchini o'quv materiallarini qabul qilishi yengillashadi. Keyinchalik ham bu masalada ikkilanish yuzaga kelganda o'quvchi ko'z oldigai'sha dars jarayonida ko'rgan narsalarini keltiradi va natijada bu masalada xatolikka yo'l qo'ymaydi.

Masalan, o'qituvchi har xil mevalarning tasvirlarini ko'rsatadi va o'quvchilardan ularning nomlanishini aytishni so'raydi. Xohishiga ko'ra u buni o'quvchilarning har biridan alohida yoki ularni guruhga bo'lgan holda amalga oshirishi mumkin. Namoyish qilinayotgan suratlar yorqin ranglarda, orqadagi o'quvchilar ham ko'ra oladigan kattalikda bo'lishi kerak. Darsga qiziqishni o'ttirishga astoydil harakat qilgan o'qituvchilar bu mevalarning o'zini yoki ularning o'yinchoq modellarini olib kelishlari mumkin. O'quvchilar bu orqali ot nima ekanligini o'zlashtiradilar. Bu misol orqali nima? so'rog'iga javob beruvchi, ya'ni jonsiz buyumlar nomlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Kim? so'rog'iga javob bo'luvchi otlarni tushuntirish uchun endi insonlarning suratlari namoyish qilinadi va ularda kimlar tasvirlangani haqida so'raladi. Shundan so'ng o'qituvchi kim? so'rog'iga faqat insonlarga nisbatan ishlatilishini, hayvonlar va hasharotlarga nisbatan ishlatilmasligini aytib o'tadi. Berilgan ma'lumotlarni mustahkamlash maqsadida "Kim hozirjavob" o'yinini o'tkazish mumkin: o'qituvchi uchta qatordan bittadan o'quvchini sinf doskasi yoniga chaqirib, ularning oldiga buyumlar nomini navbatib bilan bittadanaytib qo'yadi. Aytilgan nomlar takrorlanmasligi lozim. Tutilib qolgan yoki avval aytilgan so'zni takror aytgan o'quvchi o'yindan chetlatiladi. Eng so'ngida yakka qolgan o'quvchi g'olib sanaladi, shu jumladan u chiqqan partalar qatori ham. Yutib chiqqan bola yoki qiz albatta rag'batlantirilishi lozim, bu jihat sinf jamoasida g'alabaga bo'lgan intilishni so'ndirmaslikka xizmat qiladi. Bolalar nafaqat yutishga harakat qiladilar, balki o'sha dars materialini to'liq o'zlashtirishga erishadilar.

Ot so'z turkumidan tashqari, sifat so'z turkumining o'ziga xos jihatlarini tushuntirish uchun ham turli buyumlar, ertak qahramonlari va jonivorlar tasvirlaridan ham foydalanish mumkin. Masalan, ertak qahramonlarini olsak. Bolalar bu yoshda ertaklarga juda qiziqadigan bo'ladilar. Ularning har birining o'z sevimli ertagi va shu ertak ichida eng yoqtirgan qahramoni bo'ladi. Sifat so'z turkumining qanday? So'roqlarini tushuntirishi uchun o'qituvchi shu qahramonlar suratini o'quvchilarga ko'rsatadi. U o'quvchilardan suratni tasvirlab berishni so'raydi. O'quvchilar to'g'ri javob berganlaridan so'ng, o'qituvchi ular bilan birga shu nomdagi ertak mazmuniga to'xtab o'tish mumkin. Odatda sinflarda bunday ertaklarni yoddan biladigan o'quvchilar albatta topiladi. O'qituvchi shundan keyin suratda tasvirlangan qahramonning tashqi ko'rinishi haqida to'xtab o'tadi va o'quvchilardan uni tasvirlab berishni so'raydi. O'quvchilar jo'r bo'lgan holda yoki yakka-yakka, navbati bilan rasmdagi bir sifatni aytadilar. O'qituvchi esa ularni aytganlari orasidan sifat so'z turkumining qanday? qanaqa? so'roqlariga javob beruvchi

soʻzlarni doskaga yozib boradi. Suratni taʼriflash yakunlangach, oʻqituvchi oʻquvchilar bilan, yuqoridagi soʻroqlarni qoʻllagan holda qayta takrorlaydi, va albatta, bu jarayonda oʻz faolligi bilan boshqa sinfdoshlaridan ajralib turgan oʻquvchilarni ragʻbatlantirishni ham unutmaydi. Ona tili darslarida bulardan tashqari yana boshqa soʻz turkumlarini ham koʻrib chiqish mumkin. Son soʻz turkumini tushuntirishda turli narsa buyumlarning miqdorini tushuntirishga harakat qilish lozim boʻladi. Albatta, buning uchun matematika darslaridagi maʼlumotlarni yodga olishga toʻgʻri keladi. Oʻqituvchi shundan soʻng son soʻz turkumiga oid soʻroqni doskaga yozadi qancha? nechta? soʻroqlari bilan tanishtirgach, oʻqituvchi ularga ikkita koʻrgazmani koʻrsatadi, ularda, aytaylik birida bitta meva surati, ikkinchisida esa aynan shu mevaning koʻplikdagi rasmi tasvirlangan boʻladi. Misol keltirishda mevalardan boshqa buyumlarni ham misol tariqasida koʻrsatish mumkin. Ularga nisbatan soʻroq beriladi-nechta meva bor?Suratdagi miqdorga qarab, oʻquvchilar javobni aytadilar. Buning natijasida oʻquvchilar ushbu turkum haqidagi maʼlumotlarni toʻliq oʻzlashtirishga erishadilar. Ona tili darslarida bu keltirilgandan boshqa usullardan ham unumli foydalansa boʻladi.

Adabiyotlar:

1. Qosimova K., Matjonov S., Gʻulomova X., Yoʻldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili oʻqitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.
2. Gʻulomova X., Yoʻldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni oʻqitish metodikasi. –T.: TDPU, 2009. – 70 b.
- 3.A.Gʻulomov.M.Qodirov,M.Ernazarova. Ona tili oʻqitish metodikasi-T:”Fan va texnologiya” nashriyoti, 2012.- 108 b.